

4. Ашурметова Н.А., Хамдамова Г.Т. Тенденции развития органического сельского хозяйства в мире и Узбекистане // Научно-практический журнал "Агроэкология". 2(20) 2021 г. С. 127-130.
5. Ботирова Д., Нурутдинов К. Международный стандарт GLOBALG.A.P.: основные требования для сертификации производства плодоовощной продукции / - Ташкент: Baktria press, 2017. - 32 с.
6. Греков А.Н. Совершенствование механизма устойчивого развития сельских территорий (на материалах Тамбовской области) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Мичуринск 2014.
7. Семенова Н.Н. Устойчивое развитие сельского хозяйства как важнейший императив // Материалы III Межд. научно-практ. конференции "Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства". Том III. Макеевка, 2020. Изд-во: ГОУВПО «Донбасская аграрная академия».
8. ФАО. 2015. Преодоление последствий изменения климата: роль генетических ресурсов для производства продовольствия и ведения сельского хозяйства. Рим (также доступно по адресу: <http://www.fao.org/3/i3866e/i3866e.pdf>).
9. Шестой Национальный Доклад Республики Узбекистан о сохранении биологического разнообразия / под общей редакцией Б.Т. Кучкарова / Ташкент, 2018. – 235 с.
10. Щукина, Л.В. Сравнительная характеристика систем земледелия с позиции устойчивости развития сельского хозяйства / Л.В. Щукина // Органічне виробництво і продовольча безпека: матеріали доповідей учасників III Міжнародної науково-практичної конференції (23 квітня 2015 р.). – Житомир: Вид-во «Полісся», 2015. – с.76-80.
11. Altieri, Miguel A. (1995) *Agroecology: The science of sustainable agriculture*. Westview Press, Boulder, CO.
12. Paul Kristiansen and Charles Mansfield, "Overview of organic agriculture", in Paul Kristiansen, Acram Taji, and John Reganold (2006), *Organic Agriculture: A global perspective*, Collingwood, AU: CSIRO Publishing; Ikerd, John (2010). "Sustainability, Rural". In Leslie A. Duram (ed.). *Encyclopedia of Organic, Sustainable, and Local Food*. ABC-CLIO. pp. 347–49. ISBN 978-0313359637; Abbott, L. K.; Murphy, Daniel V. (2007). *Soil Biological Fertility: A Key to Sustainable Land Use in Agriculture*. Springer. p. 233. ISBN 978-1402066184.
13. Robinson, Guy M. (2009). "Towards Sustainable Agriculture: Current Debates". *Geography Compass*. 3 (5): 1757-1773. DOI:10.1111/j.1749-8198.
14. Renting, H.; Rossing, W.A.H.; Groot, J.C.J.; Van der Ploeg, J.D.; Laurent, C.; Perraud, D.; Stobbelaar, D.J.; Van Ittersum, M.K. (2009). "Exploring multifunctional agriculture. A review of conceptual approaches and prospects for an integrative transitional framework". *Journal of Environmental Management*. 90: S112-S123. DOI:10.1016/j.jenvman. 2008.11.014. ISSN 0301-4797. PMID 19121889.
15. Tilman, David; Cassman, Kenneth G.; Matson, Pamela A.; Naylor, Rosamond; Polasky, Stephen (2002-08-08). "Agricultural sustainability and intensive production practices". *Nature*. 418 (6898): 671-677. Bibcode:2002 Natur.418.671T. DOI:10.1038/nature01014. PMID 12167873. S2CID 3016610.
16. <https://www.fao.org/aquatic-genetic-resources/home/ru/>.



INNOVATION MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Botirov Erkin Xayitovich -
Toshkent moliya instituti,
Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi dotsenti

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a64

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan agrar islohotlarni diversifikatsiyalash jarayonlari va amaliy natijalar, shuningdek, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash jarayonlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari va shu bilan birgalikda, meva-sabzavotchilik klasterlarining tashkil etilishi va rivojlantirishda agrar bozor oldida turgan asosiy vazifalar to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: agrar bozor, diversifikatsiyalash, saqlash, qayta ishlash, klaster, globallashuv, meva-sabzavotchilik klasteri, moliyalashtirish.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЛОДОВООЩНЫХ КЛАСТЕРОВ

Ботиров Эркин Хайитович -
Тащкентский финансовый институт,
доцент кафедры "Экономическая безопасность"

Аннотация. В данной статье рассмотрены процессы и практические результаты диверсификации аграрной реформы, проводимой в Узбекистане, а также вопросы совершенствования механизма финансирования производства, хранения и переработки плодоовощной продукции, а также организационного и развития новых плодоовощных кластеров перед аграрным рынком представлены мнения об основных задачах.

Ключевые слова: аграрный рынок, диверсификация, хранение, переработка, кластер, глобализация, плодоовощной кластер, финансирование.

Botirov Erkin Xayitovich -

*Tashkent Financial Institute, Associate Professor
of the Department of "Economic Security"*

Abstract. *This article examines the processes and practical results of the diversification of the agrarian reform carried out in Uzbekistan, as well as issues of improving the mechanism for financing the production, storage and processing of fruits and vegetables, as well as the organization and development of innovative fruit and vegetable clusters for the agricultural market, and opinions on the main tasks are presented.*

Key words: *agricultural market, diversification, storage, processing, innovation cluster, globalization, fruit and vegetable cluster, financing.*

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan agrar islohotlar tarmoq iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini jadal sur'atlarda amalga oshirishni talab etmoqda. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, tabiiy, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, ichki va tashqi bozor talablaridan kelib chiqib, iste'mol uchun yakuniy, sifatli, raqobatbardosh hamda xalqaro standartlarga mos eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar asta-sekin o'z samarasini bermoqda.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko'paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Qulay agrobiznes muhit va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 30 foizini tashkil etadi. Agrar tarmoqda 4 millionga yaqin ishchi-xizmatchilar faoliyat yuritmoqda. Agrar sohada hosildorlik va mehnat unumdorligini yanada oshirish maqsadida Prezident farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada ilg'or texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qator muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqaning rivojlanish strategiyalari fan va texnika yutuqlariga, innovatsiyalarga asoslanadi. Shu bilan birga, klasterli yondashuv mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishning innovatsion texnologiyasi sifatida qaraladi. Asarlarida klasterlash nazariyasi eng to'liq shakl va tizimga ega bo'lgan M.Porterning so'zlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda, ayniqsa, globallashtirish sharoitida, uning an'anaviy tarmoqlar yoki tarmoqlarga bo'linishi o'z kuchini yo'qotmoqda, klasterlar yuqoriga chiqadi [4].

M.Porter fikricha, mamlakatning raqobatbar-

doshligini uning alohida firmalarining emas, balki klasterlar – turli sohalaridagi firmalar uyushmalarining xalqaro raqobatbardoshligi orqali ko'rib chiqish kerak va bu sinflarning ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati muhim ahamiyatga ega [4].

Bevosita agroklasterning mohiyati A.A.Nastin tomonidan atroflicha asoslangan. Jumladan, uning ta'rificha, "agroklasterning bir vaqtda va o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof-muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi, turli mulk egalari – oilaviy ferma, fermerlarning kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor subyektlari tizimi"[5]dan iborat.

Agroklasterning o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra agrosanoat majmuyida tadbirkorlik agroklasterni tarzida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ham nazariy jihatdan uning iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etilishi agroklasterning mohiyatini kengroq ochib beradi. Jumladan, A.V.Glotko tomonidan berilgan ta'rifda "agrosanoat majmuyidagi tadbirkorlik agroklasterning – ushbu tizimda ma'lum darajada o'zaro aloqa qilish madaniyatiga ega bo'lgan bog'liqlik bilan, ishtirokchilarining umumiy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi va texnologik zanjir tamoyili asosida tashkil etilgan hududiy jihatdan alohida innovatsion yo'naltirilgan integratsion tuzilma"[6] tarzida bayon etilgan bo'lsa, R.R.Toxchukov esa yanada aniqroq tarzda, "tadbirkorlik agroklasterning – pirovard natijasi sinergetik samara olish hisoblangan ishlab chiqarishning barcha bosqichlari – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona takror ishlab chiqarish tarzida mujassamlashtirgan turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning birlashuvi"[7]dan iborat ekanligi sifatida ta'riflaydi.

Shuningdek, E.Galves-Nogales agroklasterni sodda holda ifodalab, "mahsulot ishlab chiqaruvchilar va institutlarning umumiy manfaat olish va imkoniyatlarni kashf etish yo'lida rasmiy yoki norasmiy tarzda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohalarida o'zaro bog'lanishi va tarmoqlararo aloqalarni o'rnatishi-

dir" deya ta'kidlaydi [8]. Ushbu nazariy ta'riflarni yanada takomillashtirgan va kengaytirgan holda umumlashtirib, "agroklastar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuyini shakllantirish va rivojlantirish, qishloq aholisining ish bilan bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va ekologik muhitni yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo'jalik yuritish subyektlaridan tarkib topadi", degan xulosaga kelish mumkin. Shu nuqtayi nazardan ham rivojlangan mamlakatlar tajribasining ijobiy natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligining raqobatbardosh rivojlanishining samarali omillaridan biri agroklastarlarni shakllantirish va ular faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Agroklastarlarning umumiy xususiyatlarini tizimlashtirish orqali ular faoliyatining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha keng tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bu borada iqtisodchi olim A.I.Skiba tomonidan agroklastarlarning umumiy xususiyatlari bo'yicha tizimlashtirilishiga oid ishlanmalari [9] muhim ahamiyatga egadir.

Har bir mamlakat yoki mintaqada klaster ixtisoslashuvi va sinflanishiga ko'ra milliy iqtisodiyot tizimining rivojlanishdagi o'rniga mos keluvchi o'z mezonlariga ega bo'ladi. Klasterlarni sinflashda G.U.Akimbekova tadqiqotlarida quyidagi yondashuvlar ajratib ko'rsatiladi [10]: obyektlarga ko'ra (mintaqaviy, milliy, xalqaro), tarmoqlarga ko'ra (tarmoqlar, tarmoqlararo); klaster strategiyasiga ko'ra (geografik, gorizontaal, vertikal).

Demak, agrosanoat tarmoq klasteri bir tarmoq korxonalarining yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan, nisbatan murakkab o'zaro harakatlardan iborat bo'lib, barcha ishtirokchilar sa'y-harakatlari natijasi esa yakuniy mahsulot bo'lib, u ilmiy-amaliy yutuqlar, yuqori texnologiyalarni qo'llash asosida mahsulot ishlab chiqarishdan boshlab, xaridorlarga yetkazishga qadar bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi, agrosanoatning qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, saqllovchilar, qayta ishlovchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, davlat, moliyaviy tizimlar va korxonalarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyekti sifatida meva-sabzavot ishlab chiqaruvchi korxonalar va innovatsion meva-sabzavot klasterlari olingan. Tadqiqotning predmeti bo'lib, innovatsion meva-sabzavot klasterida "mahsulot ishlab chiqarish – qayta ishlash – saqlash-sotish" jarayonlarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish va undan samarali foydalanish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqotda iqtisodiy, qiyosiy va statistik tahlil uslublari hamda iqtisodiy jarayonlarning matematik usul-

lari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Meva-sabzavotchilik klasteri bir tarmoq korxonalarining yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan, nisbatan murakkab o'zaro harakatlardan iborat bo'lib, barcha ishtirokchilar sa'y-harakatlari natijasi esa yakuniy mahsulot bo'lib, u ilmiy-amaliy yutuqlar, yuqori texnologiyalarni qo'llash asosida mahsulot ishlab chiqarishdan boshlab, xaridorlarga yetkazishga qadar bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi, agrosanoatning qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, saqllovchilar, qayta ishlovchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, davlat, moliyaviy tizimlar va korxonalarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olinadi.

Klaster tizimlari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- yirik korxonaning mavjudligi, tizimning uzoq muddatli iqtisodiy, innovatsion va boshqa strategiyasini belgilaydigan rahbar;

- klaster tizimida ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismini hududiy mahalliyashtirish;

- klaster tizimida ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, uning aksariyat ishtirokchilari uchun ushbu aloqalarning ustun qiymati;

- tizim ishtirokchilarining ishlab chiqarish dasturlari, innovatsion jarayonlar doirasida o'zaro munosabatlarini uzoq muddatli muvofiqlashtirish; asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati va shu kabilar;

- innovatsion yo'nalish omili: tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish ishtirokchilari va innovatsiyalar subyektlari o'rtasidagi munosabatlar majmuasiga alohida e'tibor beriladi;

- yetakchi (integratsiyalashgan) mahsulot yoki xizmat omili.

Ko'pincha, yetakchi investor yangi tashkil etilgan, faoliyat yuritayotgan va qayta tuzilgan korxonalar asosida klaster yaratadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda biznesning, shu jumladan, agrosanoat korxonalarining raqobatbardoshligiga faqat fan, texnika va innovatsiyalar yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy yetish asosida erishish mumkin. Katta innovatsion ishlanmalar, qoida tariqasida, bitta xo'jalik yurituvchi subyektning intilishlari bilan amalga oshirilmaydi, buning uchun dasturiy maqsadli boshqaruv doirasida biznesning, fanning, ma'lum darajada hokimiyatning resurs salohiyati yuzasidan sa'y-harakatlarni birlashtirish kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda zarur ilmiy-tadqiqot natijalarini olish uchun korxonalar faol hamkorlik qiladi, ilmiy-texnik faoliyat natijalarini ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda birgalikda amalga oshirish va ulardan foydalanishning o'zaro manfaatli shakllarini topadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollar-da zarur ilmiy-tadqiqot natijalarini olish uchun korxonalar faol hamkorlik qiladi, ilmiy-texnik faoliyat natijalarini ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, universitetlar va boshqa korxonalar bilan innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda birgalikda amalga oshirish va ulardan foydalanishning o'zaro manfaatli shakllarini topadi.

Innovatsion hamkorlikning asosiy sabablari xarajatlarni taqsimlash, texnologik bilimlarni olish, mahsulot ishlab chiqarishda o'zaro yordam, yangi texnologiyalar, sanoat standartlari, qo'shimcha bozorlarni olish, bozorga chiqish tezligini oshirish va hokazo. Ko'pgina mamlakatlarning universitetlari tijorat tadqiqot tashkilotlariga qaraganda ancha past narxlarda tadqiqot xizmatlari, tegishli imkoniyatlar va zarur jihozlarni taqdim etadi. Hududlardagi klasterlash jarayonlari kichik va o'rta biznesga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Meva-sabzavotchilik klasterlariga qo'shilish uchun motivatsion komponentlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- kichik va o'rta biznesda faoliyat olib borish va rivojlanish barqarorligi, kompaniya kafolati ostida kredit olish imkoniyati;
- infratuzilma obyektlaridan foydalanish imkoniyatlari;
- investitsiya dasturlari va loyihalarida ishtirok etish (shu jumladan, xarajatlarning bir qismini qoplash, kreditlar uchun to'lovlar, investitsiyalarni jalb qilish va hokazo).

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan mintaqalar iqtisodiyotini klasterlash nazariyasi va amaliyotini o'rganish, klasterli yondashuv mintaqaviy darajada qanday afzalliklarni, klasterlarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlashga qanday imkon beradi:

Birinchidan, mintaqaviy innovatsion klasterlar qo'shma ilmiy bazaga asoslangan texnologik tarmoq deb ataladigan yangi texnologiyalar, bilimlar, mahsulotlarni tarqatishning barqaror tizimiga asoslanadi.

Ikkinchidan, klaster korxonalarini ichki ixtisoslashuvni amalga oshirish, innovatsiyalar narxini minimallashtirish qobiliyati tufayli qo'shimcha raqobatdosh ustunliklarga ega bo'ladi.

Uchinchidan, mintaqaviy innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlarining muhim xususiyati ularning tarkibida moslashuvchan tadbirkorlik tuzilmalari – mintaqaviy iqtisodiyotining innovatsion o'sish nuqtalarini shakllantirishga imkon beradigan kichik korxonalarining mavjudligidir.

To'rtinchidan, mintaqaviy innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlari kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun juda muhim: ular kichik firmalarga ma'lum bir tadbirkorlik joyiga xizmat ko'rsatishda yuqori ixtisoslikni ta'minlaydi, chunki yirik sherik korxonaning kapitaliga kirish osonlashadi va g'oya-

lar faol ravishda almashiladi hamda bilimlar mutaxassislardan tadbirkorlarga o'tkaziladi.

Innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- tashkiliy-huquqiy shakl-birlashma (notijorat sheriklik) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning erkinligi va mustaqilligini saqlab qolgan holda o'zaro hamkorlik qilish maqsadida ixtiyoriy birlashmasi;
- yuqori sifat standartlariga erishish;
- mahsulotlarni eksportga yo'naltirish;
- yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik tufayli xaridlarni tejash;
- tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarishni qayta taqsimlash;
- kollektiv brend, qo'shma tarqatish tarmog'i;
- klasterning hokimiyat bilan o'zaro ta'siri.

Joylardagi viloyat hokimiyatining korxonalar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorligi doirasida soliq to'lovchilar soni va soliq bazasi ko'payishi, biznes bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun qulay vosita paydo bo'lishi, vertikal ravishda tashkil etilgan ishbilarmon guruhlariga bog'liqlik kamayishi, hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun asoslar mavjud.

Ushbu ilmiy qoidalar va prinsiplarga asoslanib, biz mintaqaviy innovatsion meva-sabzavotchilik klasterining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladik:

1) asosiy – mintaqaviy ixtisoslashgan, yakuniy meva-sabzavot mahsuloti ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini, shu jumladan, agrosanoat majmuasini qayta ishlash korxonalarini;

2) qo'shimcha obyektlar – faoliyati sanoat korxonalarini faoliyatini bevosita ta'minlaydigan obyektlar;

3) xizmat ko'rsatish obyektlari – mavjudligi majburiy bo'lgan, ammo ularning faoliyati sanoat korxonalarini faoliyatini bilan bevosita bog'liq bo'lgan obyektlar;

4) yordamchi obyektlar – meva-sabzavotchilik klasterining ishlashi uchun zarur bo'lgan klaster obyektlari.

O'z navbatida, mintaqaviy iqtisodiy klasterlarni sanoat va mahsulot klasterlari guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq. Xususan, iqtisodiyotning agrosanoat sektoridagi klasterlar, shu jumladan, meva-sabzavotchilik klasterlari hududiy joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari va yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Zamonaviy sharoitda innovatsion meva-sabzavotchilik klasterini ishlab chiqarish va marketing bilan bog'liq tashkilotlarning hududiy birikmasi sifatida belgilashimiz mumkin.

Meva-sabzavotchilik klasterlari xomashyo ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan yagona takror ishlab chiqarish davridagi turli faoliyat sohalari tashkilotlarining uyushgan birlashmalari bo'lib, innovatsion va investitsiya faoliyatini faollashtirish asosida takror ishlab chiqarishning

barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Sanoat mahsuloti subkompleksida meva-sabzavotchilik klasterini yaratishning maqsadi bozor ulushini saqlab qolish, raqobatchi bilan ma'lum bir hududda erkin bozor o'rnini egallash va shu kabilar marketing jihatlarini bo'lishi mumkin. Agrosanoat klasteriga transport tashkilotlari, qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tashkilotlari, agrosanoat xoldingi (korporatsiyalar), konsalting tashkilotlari, ilmiy va dizayn institutlari, ta'lim muassasalari, qonunchilik institutlari, hokimiyat, moliyaviy institutlar kirishi mumkin.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, yakuniy mahsulotni yaratish ustida ishlaydiganlarga ko'ra klasterlarga birlashish maqsadga muvofiq. An'anaviy agrosanoat integratsiyasi sharoitida foydaning asosiy qismi yakuniy mahsulot ishlab chiqarishda qoladi. Klaster yondashuvi munosabatlarning shunday mexanizmini shakllantiradi, bu nafaqat yakuniy mahsulotni ishlab chiqaradigan yoki sotadigan kishiga, balki klasterning barcha ishtirokchilariga ham ekvivalent foyda olish imkonini beradi. Bu klaster va mavjud integratsiyalashgan tuzilmalar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi xoldingi, moliyaviy va sanoat guruhlarini o'rtasidagi muhim farqlardan biri bo'lib, unda ishtirokchilarning iqtisodiy munosabatlari teng emas.

Joriy qilinayotgan meva-sabzavot klasterlari "meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo'lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o'zaro bog'liq korxonalar guruhi doirasi"ni qamrab oladi. Bizningcha, qishloq xo'jaligida va umuman, meva-sabzavotchilikda innovatsion klasterlar jarayoniga o'tishda kechroq kirishilgani sababli, meva-sabzavotchilikda oid ilmiy-tadqiqot ishlarida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan, shuningdek, innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlarini tuzish, ularni samarali rivojlantirish, innovatsion klasterlarning har bir mintaqani iqtisodiy barqarorlashtirishdagi roli, mahsulot ishlab chiqarishda klasterli yondashuvning afzalliklari atroflicha tadqiq etilmagan.

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik sohasini innovatsion klasterlashtirish jahon bozoriga sifatli va raqobatli mahsulotlar bilan chiqishni ta'minlaydi. Mamlakatimizning jahon bozoriga integrallashuvi va iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, har qanday mamlakat agrosanoat majmuyining asosiy vazifasi o'z mahsulotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xomashyolarini ishonchli yetkazib berishdir. Shu maqsadda agrosanoat majmuyini yagona boshqaruv, rejalashtirish va moliyalashtirish, mutanosib va muvozanatli rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini sezilarli darajada mustahkamlash, tarmoqlararo iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klaster tizimi yaxshi samara berib, mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog'i ham katta salohiyatga ega. Lekin bundan oqilona foydalanilmayapti.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yiliga 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin ularning bor-yo'g'i 1,5 million tonnasi eksport qilinadi.

2023-yil 7 oyida O'zbekistondan 180 xil meva-sabzavot mahsulotlari 80 ta davlatga eksport qilingan. Jumladan, 2022-yilda 1,6 mln. tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan.

Asosiy sabablaridan biri tashqi bozorlar uchun mo'ljallangan, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish talab darajasida emas. Bog' va tokzorlarda hosildorlik juda past. Masalan, xorijiy davlatlarda bir gektar intensiv bog'dan 70-100 tonna, ayrim mevalardan 130 tonnagacha hosil olinsa, yurtimizda bir gektardan 10-30 tonna, an'anaviy bog'-tokzorlarda esa 4-5 tonna mahsulot olinadi.

Mahsulotlarni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha 31 ta agrologistika markazi tashkil etilgan. Lekin aylanma mablag'lar yetishmasligi va doimiy mahsulot yo'qligi oqibatida ularning aksariyati mavsumiy ishlab, mavjud quvvatlardan bor-yo'g'i 10-15 foiz foydalanilmoqda.

Bulardan tashqari, eng asosiysi, mahsulot yetishtiruvchi agrobiznesdagi tadbirkor, yetishtirgan mahsuloti (pishib) iste'mol uchun tayyor yoki tayyor bo'lish arafasida emas, balki oldinroq sotish to'g'risida rejali tadbirlarni amalga oshirishi zarur bo'ladi. Masalan, uzumni kish-mish navi, bizning tuproq-iqlim sharoitimizda, aytaylik, iyul-avgust oylarida hosilga kirsa, mahsulot yetishtiruvchilarimiz erta bahordan yetishtirishi kerak bo'lgan mahsulotini sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishlari, ya'ni reklama jarayonlarini, ichki va jahon bozorida kamida oxirgi 2-3 yilda mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganishlari, pirovardida, fyuchers shartnomalariga asosan mahsulotlarini o'z xaridorlariga sotish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Marketing yo'qligi, jahon bozoridagi holat o'rganilmasligi oqibatida eksport talablariga javob beradigan mahsulotlar yetarli miqdorda yetishtirilmayapti. Dehqon, qayta ishlovchi va eksportchi korxonalar o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilmagan. Mahsulot yetishtiruvchi dehqon-mirishkorlar ekinlarni o'z bilganicha joylashtirib, yetishtirilgan mahsulotini sota olmayapti, eksportyor esa meva-sabzavot qidirib yuribdi. Bu esa xorijlik xaridorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga salbiy ta'sir etadi. Klasterlar tomonidan tashkil qilinadigan intensiv bog', tokzor hamda issiqxonalarini aholi va tadbirkorlarga imtiyozli shartlar asosida berish, bog'-rog'lar hosilga kirib, egasi daromad ko'rguncha ularga kredit to'lovlari bo'yicha yengillik yaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijada joriy yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi sohasida jami 808 ming, ya'ni 223 mingta doimiy va 585 mingta mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan. Paxta va g'alladan qisqargan yer maydonlarida dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun 2022-2023-yillarda aholiga ajratiladigan 193 ming gektar maydonda 2-3 marta ekin ekish orqali 5 million tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilmogda.

Bundan tashqari bog'larda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini hamda quduq nasos stansiyalarini o'rnatish uchun 25,2 milliard so'm subsidiyalar ajratilgan. Shuningdek, meva-sabzavotchilik klasterlari 244 tani tashkil etib, ularning fermer va dehqon xo'jaliklari bilan mustahkam aloqasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, meva-sabzavotchilik klasterlari tomonidan jami 1,1 million tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, shundan 620 ming tonna ichki iste'molga, 296 ming tonna qayta ishlashga hamda qiymati 186 million dollarlik 230 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsuloti eksportga yo'naltirilgan.

Prezident tomonidan klasterlar tashkil qilishda ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratib, faoliyatini yo'lga qo'yib olguncha ularga moliyaviy ko'maklashish, xususan, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan zarur mablag'lar ajratish choralarini belgilangan.

Xulosa va takliflar. Klasterlar tomonidan tashkil qilinadigan intensiv bog', tokzor hamda issiqxonalarini aholi va tadbirkorlarga imtiyozli shartlar asosida berish, bog'-rog'lar hosilga kirib, egasi daro-

mad ko'rguncha ularga kredit to'lovlari bo'yicha yengillik yaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijada joriy yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi sohasida jami 808 ming, ya'ni 223 mingta doimiy va 585 mingta mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan. paxta va g'alladan qisqargan yer maydonlarida dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun 2022-2023-yillarda aholiga ajratiladigan 193 ming gektar maydonda 2-3 marta ekin ekish orqali 5 million tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilmogda.

Bundan tashqari bog'larda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini hamda quduq nasos stansiyalarini o'rnatish uchun 25,2 milliard so'm subsidiyalar ajratilgan. Shuningdek, meva-sabzavotchilik klasterlari 244 tani tashkil etib, meva-sabzavotchilik klasterlari tomonidan jami 1,1 million tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, shundan 620 ming tonna ichki iste'molga, 296 ming tonna qayta ishlashga hamda qiymati 186 million dollarlik 230 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsuloti eksportga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik marketingi bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirish barobarida Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Qatar va Quvayt davlatlari bozoriga eksport qilish katta samara beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlangan fikrlar, taklif hamda tavsiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik tizimini rivojlantirishda klaster tizimini yanada takomillashishi uchun xizmat qiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 декабрдаги "Мева-сабзавотчилик соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тармоқда кластер ва кооперация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-52-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 октябрдаги "Экспорт фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлашни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6091-сонли фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. <https://stat.uz/> сайти маълумотлари.
4. Майкл Э. Портер. Конкуренция. Пер. с англ. Уч. пос. – М.: Издательский дом "Вильямс", 2000. – 495 с. Парал. тит. англ. ISSN 5-8459-0055-7 (рус).
5. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // "Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий", 2011, № 4. С. 45.
6. Глотко А.В. Инновационно-кластерная развитие АПК. Материалы межрегион. научно-практ. конф. с междунар. участием "Проблемы и перспективы государственного правового, экономического и социального развития субъектов Российской Федерации". 3-4 октября 2008 г. Горно-Алтайский, РИО ГАГ. С. 104.
7. Тохчуков Р.Р. Предпринимательский агропромышленный кластер: теоретические основы создания и функционирования в системе АПК. // Современные научные исследования: электронный научный журнал, 19 апреля 2012 г., рубрика: "Экономика". <http://www.sni-vak.ru/info@sni-vak.ru>
8. Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome, 2010.
9. Скиба А.И. Кластеры: реализация системного принципа в пространственно институциональной организации производства. // Ж. "Региональная экономика: теория и практика", 2011, 10, (193). С. 31.
10. Акимбекова Г.У. Механизм формирования и функционирования отраслевых кластеров в сферах производства, хранения, переработки и сбыта сельскохозяйственной продукции. Методические рекомендации. /Акимубекова Г.У., Баймуханов А.Б., Каскабаев У.Р., Мухаджан М.С. – Алматы: КазНИИ экономики АПК и развития сельских территорий, 2017. – 53 с.
11. Ботиров Э.Х. Мева-сабзавотчилик кластери ва уларни қўллаб-қувватлашининг янгича тизими. – Т.: Агро информ, 2022. № 1 (3) 2022. 71-73-бетлар.
12. Ботиров Э.Х. Мева-сабзавотчилик тармоғида замонавий кластерларни молиялаштириш механизми. – Т.: Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт. 2023. 5-сон. 73-75-бетлар.
13. Ботиров Э.Х. Мева-сабзавотчилик тармоғида замонавий кластерларни молиялаштириш механизми. «Трансформация бизнес-процессов в условиях цифровизации экономики и обеспечения финансовой безопасности». Сборник тезисов и докладов совместной международной научно-практической конференции. 23 февраля. 2023 г. – Ташкент-Екатеринбург. ТФИ, 2023. 369-372 с.